

2025-yil Yer sayyorasida jami 4 ta Quyosh va Oy tutilishlari sodir bo'ladi. Shundan ikkitasi mart oyida!

2025-yil 14-mart kuni Toshkent vaqti bilan 11:58 da to'liq Oy tutilishi hodisasi sodir bo'ladi. Bu hodisada Oy Yer atrofida o'z orbitasi bilan harakatlanib Yerning soyasiga to'liq kiradi. Bunda Yer Oyni Quyosh nurlaridan o'z soyasi bilan to'sadi. Biroq Quyoshdan kelayotgan nurlarning bir qismi Yer atmosferasidan o'tib borib Oy yuzasiga tushadi. Natijada Oy Yerdan qaralganda qizil ranggaga burkanib ko'rinadi. Bazen bu hodisani "qizil Oy" deb ham atashadi.



Afsuski, 14-martdagi ushbu hodisani O'zbekiston va Osiyo mintaqasidan kuzatib bo'lmaydi. Mart oyidagi ikkinchi tutilish esa qisman Quyosh tutilishi bo'lib, 29-mart kuni sodir bo'ladi. Lekin bu tutilishni ham O'zbekiston hududidan kuzatilmaydi.

Hafa bo'lishga shoshilmang, yaxshi yangilik ham bor: Joriy yilning 7- sentyabrida ushbu astronomik hodisa yana takrorlanadi va bu gal "To'liq Oy tutilishi" hodisasini O'zbekistondan turib kuzatish mumkin bo'ladi.